

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI MUSIQA TA'LIM-TARBIYASINING MAQSAD VA VAZIFALARINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqa inson ruhiyatining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Musiqadan turli o'zuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni his eta oladigan, o'z kasbiga, ona Vataniga mehr qo'ygan bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: qo'llash, emotsional, ishtiyoq, yuksak, o'quv standartlari, uyushtirish, zotan, estetik, jiddiy.

ЗНАЧЕНИЕ ЦЕЛЕЙ И ЗАДАЧ МУЗЫКАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация. Музыка – это инструмент, активно развивающий эмоциональные чувства, которые быстро воздействуют на человека. Человек знакомится с музыкой через свою мать, находит в ней удовольствие и поддержку на протяжении всей жизни. Музыка – неотъемлемая часть человеческой психики. Чтобы получать от музыки разнообразные блага, человек должен быть высококультурным, иметь чистое сердце, уметь чувствовать прекрасное и любить свою профессию и свою Родину.

Ключевые слова: применение, эмоциональность, страсть, высокий, образовательные стандарты, организация, оригинальный, эстетичный, серьезный.

THE IMPORTANCE OF THE GOALS AND OBJECTIVES OF MUSIC EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Annotation. Music is an instrument that actively develops emotional feelings that quickly impact a person. People are introduced to music through their mothers, finding pleasure and support in it throughout their lives. Music is an integral part of the human psyche. To derive the diverse benefits of music, a person must be highly cultured, have a pure heart, be able to appreciate beauty, and love their profession and their homeland.

Keywords: application, emotionality, passion, high, educational standards, organization, original, aesthetic, serious.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Musiqa tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir kursatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va goyaviy-axloqiy tarbiyalashning muhim vositasidir.

Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir al-Forobiy "Bu fan tanning sog'ligi uchun foydalidir degan edi. Bobomiz Shayx Sa'diy aytgan edi: "Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir". Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqa inson ruhiyatining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Musiqadan turli o'zuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni his eta oladigan, o'z kasbiga, ona Vataniga mehr qo'ygan bo'lishi kerak. Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan

musiqa madaniyatini tarbiyalash, musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun musiqa o'qituvchisining oldiga qo'yilgan vazifalari quyidagilardir:

1. Bolalarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish va muhabbatni oshirish.
2. Musiqiy faoliyatlar jarayoni badiiy ijodkorlik va his-tuygularni rivojlantirish.
3. Asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash.
4. Musiqa darslarida kasb-hunar va mehnatga nisbatan o'quvchilarda ishtiyoq uyg'otish kabi ishlarni amalga oshirish kerak.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish musiqa mashg'ulotlarini olib boruvchi mutaxassisning professional va axloqiy qiyofasiga bog'liq. Har qanday san'atkor ham maktabda musiqa darslarni olib borolmaydi. Buning uchun, musiqa mutaxasis o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lmog'i lozim. U pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, etika va estetika nazariyasi, musiqa nazariyasining amaliy sohalaridan, musiqa o'qitish metodikasi fanlaridan chuqur bilimga ega bo'lmog'i kerak. Musiqa o'qituvchisi musiqa san'atining nazariy va amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lishi lozim. Ya'ni u ham cholg'uchi, xonanda, xor dirijyori, jurnavozchi, musiqa nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida ish ko'rmog'i lozim. Musiqa o'qituvchisining ijodkorligi shundaki, u mashg'ulotlarni olib borish uchun senariy muallifi, uning ijrochisi va rejissyori sifatida ish tutadi. Shu bois musiqa darsi san'at darsi deyiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida musiqa tugragi rahbarining faoliyat miqyosi kengdir.

Mashg'ulotlardan tashqari musiqa tarbiyasi turlarini tashkil etish va boshqarish, maktabda musiqa tarbiyasining ommaviy shakllarini (san'atkorlar bilan uchrashuvlar, suhbat-konsertlar, shoirilar bilan uchrashuvlar, ko'rik tanlovlari, bayramlarni) uyushtirish musiqa mashg'ulotlari rahbarining zimmasidagi vazifadir. Shu bilan birga, muassasadan tashqari musiqa tarbiyasi markazlari (bolalar musiqa maktablari, o'quvchilar saroylari, bolalar teatri) bilan aloqada bo'lib, iqtidorli bolalarni ularga jalb etish va ularning faoliyatini bog'cha hayotida qo'llash ham musiqa rahbarining zimmasidadir.

Bo'lajak musiqa mutaxassislari yosh avlod ongiga yuksak tuyg'ularni singdirish, ularda ona-Vatanga muhabbat, go'zallikka intilib yashash, uni asrash va yaratishga bo'lgan ishtiyoq uyg'otuvchi kasb egalari hisoblanadilar. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu noyob kasb egalarining imkoniyatlarini chuqur his qilgan holda, yosh avlodga musiqiy ta'lim berish zarurligiga alohida e'tibor qaratib, ularga zarur shart-sharoitlar yaratib berish haqida maxsus farmon chiqardi. Unda ta'kidlanganidek, "Bolalar musiqa va san'at maktablarini zamonaviy o'quv va musiqa anjomlari bilan ta'minlash" bugungi kun talablaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy va texnik bazasini mustahkamlash, ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009–2014 hamda 2016–2021- yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora tadbirlari rejalashtirildi. Bu vazifalarni O'zbekiston Respublikasi prezidenti farmoyishidan kelib chiqqan holda amalga oshirish lozimligi ta'kidlab o'tildi. Umumta'lim hamda MTTda musiqa fani bo'yicha davlat o'quv standartlari va dasturlarini, darslik va metodik, o'quv qo'llanmalarini zamonaviy mezonlar asosida takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Musiqa savodining ahamiyati va vazifalari maktabgacha ta'lim muassasasida va oilada olib boriladigan barcha tarbiyaviy ishlar, bu oliyjanob fazilatlarni yosh avlodga bog'cha yoshidan boshlab shakllantirishga bog'liq. Darhaqiqat, musiqa savodini o'rganish bog'cha yoshidan boshlanadi. Ko'pgina bolalar maktabgacha tarbiya davrida bog'chaga qatnab, bog'chadagi musiqa mashg'ulotlarida dastlabki musiqaviy malakalarni hosil qiladilar. Ko'pgina qo'shiqlar va o'yinlarni o'rganib olgan hamda ritm va raqs harakatlari bilan tanishgan bo'ladilar.

Uyda tarbiyalangan bolalar ham muayyan musiqaviy tasavvurga ega bo'ladilar: radio va televideniya orqali eshittiriladigan bir qancha musiqa asarlari ularga tanish bo'ladi. Garchi ana shu bilimlar bir tizimga solinmagan bo'lsa-da, musiqa o'qituvchisi bolalarda musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o'sha bilimlarga ma'lum darajada suyanib ish ko'rish mumkin. Bolalar muassasalarida musiqa ta'limiga asos solinadi, shuning uchun musiqa rahbari ayniqsa o'qitish

216 metodikasini yaxshi bilishi, bog'cha yoshidagi kichik bolalarning yosh va individual xususiyatlarini, ularning musiqa va qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur. Musiqa ta'limini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchisi, tayyorlov bosqichi. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad – bolalarning musiqa o'quvini ostitirishdir. Shu vaqt mobaynida bolalar musiqa tovushlarining baland-pastligi va cho'zimi kabi o'ziga xos xususiyatlarni ajrata bilishga o'rganishlari va nota yozuvini o'rganishga tayyorlanishlari kerak. Ikkinchi bosqichda nota savodi, ya'ni bevosita musiqa tovushlarining grafik usulda ifodalanishi – nota yozuvini o'rganishga kirishiladi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga mos musiqa asarlari kichkintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Bog'cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi.

Qo'shiq aytish usuli, janrdagi musiqa asarlari, xususan, syujetli cholg'u pyesalarini tinglash, musiqaviy o'yinlar bilan shug'ullanish va raqsga tushish jarayonida musiqa mashg'ulotlari ko'pincha badiiy so'z bilan belgilanadi. Bola badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi va chuqur idrok qila olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan unumli foydalaniladi. Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'ulotlari kichkintoylarda badiiy estetik zavq uygo'tadi, ularning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ijodiy fikri va nutqini o'stiradi.

Bundan tashqari, musiqaviy o'yin va postanovkalar, raqslar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlik malakalarini rivojlantiradi hamda qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Musiqa uquv qobiliyati asosan quyidagi musiqa uquv turlaridan iborat bo'ladi: musiqaviy uquvi, musiqaviy tovushlarning baland-pastligini his etish qobiliyati, tembr uquvi (musiqa tovushlarining bir-biridan farq qiladigan, o'ziga xos jihatlarini ajrata bilish qobiliyati), ritm tuyg'usi va musiqa xotirasi. Bolalar bog'chasida olib boriladigan musiqa tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish va uni sevishtga o'rgatish.
2. Musiqa asarlari bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsional his-tuyg'ularini hosil etish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitib borish.
3. Bolalarni oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish, musiqa tinglash, qo'shiq aytish, musiqa bilan harakat qilish, raqsga tushish va bolalarning oddiy musiqa asboblari kuy chalish ko'nikmalarini shakllantirish va ijodiy qobiliyatini o'stirib borish.
4. Bolalar ovozi asrab tarbiyalash, qo'shiq aytishning dastlabki ko'nikmalarini hosil etish, qo'shiq shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish.
5. Musiqa asarlaridan ta'sirlanish, shu asosda bolalarda musiqaviy did va badiiy muhokama yuritish malakalarini rivojlantirish.
6. Turli musiqa mashg'ulotlari jarayonida improvizatsiya qilish musiqadagi badiiy obrazni o'yin va xor ovozlari vositasida ifoda etish, ma'lum musiqaviy mavzuga yangi o'yin o'ylab topish.
7. Musiqaviy tarbiya mashg'ulotlarini bog'cha hayoti bilan bog'lash, bog'chada o'tkaziladigan turli mashg'ulotlarda va marosimlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlardan keng foydalanish, turli ertaliklar, konsertlar uyushtirish vositasida musiqa kundalik hayotimizning ajralmas yo'ldoshi ekanligi haqida bolalarda tushuncha hosil qilish. Musiqa bolaga har tomonlama yordam berib, tevarak atrofni obrazli, emotsional idrok etish va bola xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatish uchun musiqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar qo'yiladi:

1. Bolada musiqiy qobiliyatni rivojlantirish.
2. Bolalarni ashula aytish va musiqaviy ritmik malakalarga o'rgatilib, ularda musiqani qabul qilishni his etish va tushunish qobiliyatlarini tarbiyalash.
3. Bolada badiiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Musiqiylikning rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlarini, ularning atrofda qo'shimcha, obrazlarni bolalar yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa, o'z navbatida ularning tevarak-atrofni bilishda, estetik baholanishni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bolalarni musiqa bilan shug'ullantirishning sababi bola musiqa bilan shug'ullanmasdan, qo'shiq aytish va musiqa – ritmik harakatlar qilish ko'nikmalarini yuzaga keltirib, shu soha bilan bog'liq bilimlarni o'zlashtirishi

mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarga va tarbiya berishning o'zaro uzviy bog'langan uchta metodi bor:

1. Ko'rgazmali metod.
2. So'zlab berish metodi.
3. Amaliy faoliyat metodi.

Ko'rgazmali metod.

1. Eshitishga asoslangan ko'rgazmali metod. Bunda bolaga o'rgatish bevosita musiqa bilan bo'ladi. Musiqa eshitish maxsus mashg'ulot paytida yoki bola tomonidan qo'shiq va musiqaviy ritmik harakatlarning ijro etilishi. 2. Ko'rishga asoslangan ko'rgazmalilik. Musiqa sadolari bilan qo'shib olib boriladi. Turli o'yin, raqs, mashq harakatlaridan namunalar ko'rsatiladi.

So'zlab berish metodi.

Bu metod bola ongiga mo'ljallangan bo'lib, uning faoliyatini ma'noli va mazmundor qilishga qaratiladi. Bunda pedagogning so'zi musiqa asarining dasturini tushunib olishda bolaga yordam beradi. Uning tassavvurini jonlantiradi.

So'zlab berish metodining quyidagi usullari bor:

1. Tushuntirish – yangi asarni tinglash, qo'shiq aytish, o'yin va raqslarni qo'shib, mashq qilish davomida o'ynalaniladi.

2. Izohlash – izohlar ijro, raqs, mashq harakatlarini, qo'shiq aytishning turli yo'llarini ko'rsatishda qisqa va aniq shaklda beriladi.

3. Ko'rsatma berish – bolalar o'yini raqs va mashqlarni bajarayotgan paytda beriladi. Masalan: o'ng yelka tomondan aylanish kerak, oyoq barmoqlarini pastga cho'zish kabi.

Amaliy faoliyat metodi. Bu faoliyatda bolalarga qo'shiq aytish va musiqali ritmik harakatlarni bajarishda shunday rahbarlik qilish kerakki, ular topshiriqni mumkin qadar ta'sirli va ifodali bajarishga intilsin. Bolalarni o'rgatish jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olib topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirish mumkin.

Bolalar bog'chasida bolalarni musiqaga o'rgatish bosqichlari

1-bosqich: Musiqa asari bilan dastlabki tanishtirish; Yangi qo'shiqni o'rgatish jarayonida pedagog turli musiqa asboblarda chaldirib, kuyni o'zaro taqqoslaydi va shu yo'l bilan uni xotirasida qoldiradi.

2-bosqich: Qo'shiq va musiqa ritmik harakatlarini ijro eta olish ko'nikmalari bo'lishini shakllantirish.

3-bosqich: Ko'nikmalar hosil qilish va mustahkamlash. Bunda topshiriqni avtomatik ravishda bajara oladigan qo'shiq, o'yin va raqsni mustaqil ijro etadigan darajada musiqa ta'limini berish, turli metodik usullarning barchasidan foydalanishni taqozo etadi.

Musiqani tinglay bilish va undan estetik zavqlana olish ham katta san'at hisoblanadi. Kishida musiqa tinglash madaniyati yoshligidan rivojlana boshlaydi. Bog'chada amalga oshiriladigan musiqa tinglash esa uning poydevoridir. Zotan bola musiqa mashg'ulotlarining barcha elementlari jarayonida ham musiqa tinglab, uni idrok etadi. Ammo mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida o'ziga xos jiddiy vazifalar turadi. Avvalo shuni eslatish lozimki, kishining kuylash imkoniyatidan ko'ra tinglash imkoniyati ancha keng bo'ladi.

Masalan: orkestr, xor, yakka cholg'u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab, idrok etish mumkin, xolos. Shuning uchun olimlar musiqaviy tarbiya jarayonida musiqa tinglashga alohida e'tibor qaratishadi. Chunki kishi musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida musiqa tinglash, malaka, ko'nikmalari katta rol o'ynaydi. Musiqa tinglashda bolalarning badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi. Mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida quyidagi vazifalar turadi:

1) bolalarni o'z idrokiga mos xalq klassik va zamonaviy musiqa namunalari bilan tanishtirib borish; 2) bolalarning musiqani idrok qilish qobiliyatlarini rivojlantirib borish; Musiqa haqida boshlang'ich ma'lumotlar berishni o'rgatadigan asarlar nomlarini eslashga, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqiga borishga hamda tinglagan asarlariga ma'lum miqdorda badiiy baho bera olishga o'rgatish. Kichik guruh bolalarning diqqati uncha barqaror bo'lmaganligi tufayli ular yorqin yangraydigan kichik-kichik musiqa asarlarini idrok etishga qobil

218 bo'ladilar. Ular ayniqsa, kichik qo'shiqlarni yaxshi idrok etadilar. Chunki, so'z va ohang birligi musiqa mazmunini oson idrok etishga yordam beradi. Xususan, tarbiyachi qo'shiq aytganda uning tanish ovozi va ifodalash intonatsiya mimikasi va ishoralari bolalarni maftun etadi. Shu vaqtda bolalarda hosil bo'ladigan zavqlanish, ajablanish, quvonish holatlarini kuzatish mumkin. Ammo bu holatlar tez uyg'onib,

tez so'nadi. 4–5 yoshli bolalarda diqqat e'tiborning bir muncha emotsional turg'unligi vujudga keladi. Ular raqs tipidagi kuylarni jonli, ba'zan jo'shqin holatda idrok etadilar. Yengil, kuychan musiqalarni birmuncha xotirjam idrok etadilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqa mazmuni va xarakterini bilishga ayniqsa, unda nima haqida hikoya etilishini bilishga qiziqish paydo bo'ladi. Shuning uchun ularda musiqa xotirasi ancha faol rivojlana borib, tinglagan musiqa haqida o'z taassurotlarini hikoya qilib berish ishtiyoqi paydo bo'ladi.

5–6 yoshli bolalarda esa erkin, ixtiyoriy tarzda diqqat e'tibor shakllanib, musiqani diqqatni yig'ib tinglash, uning ayrim detallarini anglab olish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Ularda musiqaga qiziqish ko'proq sevimli asarlarni takror-takror tinglash jarayonini yaxshi rivojlanadi. Ular musiqadagi umumiy kayfiyatni yaxshi sezib, asarda badiiy obrazning rivojlanib borishini kuzatishni o'rganib boradilar. Yangi asar bilan ilk bor tanishtirishga tarbiyachining qisqa va qiziqarli tushuntiruv so'zi katta rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A., N.X.Begmatova. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti; (tarbiyachilar uchun uslubiy qo'llanma)
2. Majitov Sh.M. Monografiya; Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining musiqiy savodini multimediali mashg'ulotlar asosida shakllantirish
3. Shodiyeva Q. O'rta guruh bolalar nutqini o'stirish. (1993)